

VILOYATINING GEODEMOGRAFIK HOLATINING MINTAQA IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.

Choriyev Abdurashid Qodirovich

mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy ishda viloyat miqyosidagi **geodemografik holat**ning, ya'ni aholining soni, zichligi, joylashuvi, yosh-jins tarkibi, tabiiy o'sishi va migratsiya jarayonlarining - mintaqaning **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri** chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda demografik ko'rsatkichlar bilan hududiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi va ularning rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, infratuzilma rivoji hamda xizmat ko'rsatish tizimlariga bo'lgan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, aholining hududiy taqsimoti, mehnatga layoqatli qatlamning ulushi va migratsiya oqimlari iqtisodiy faollik, bandlik darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi misollar orqali asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari asosida geodemografik omillarni hisobga olgan holda hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: demografiya, aholi, ma'lumot, millatlar, aholi bandligi, ishlab chiqarish, ko'payish.

Surxondaryo viloyati aholisi va uning o'ziga xos xususiyatlari bilan respublika viloyatlari orasida ajralib turadi. Viloyatda 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra 2891,686 ming kishi bo'lib, respublika aholisining 7,8 % ni tashkil etadi. Agar 2015-yil viloyat aholisining respublika aholisi salmog'ida 5,3 %ni tashkil etganligini¹ e'tiborga olsak, viloyat aholisining tabiiy o'sish darajasi ancha yuqori ekanligini bilish qiyin emas.

O'zbekistonda aholining tabiiy ko'payish darajasi yuqori ko'rsatkichga ega

¹ Курбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистон табийй ресурслари ва шаҳарлар ривожланиши // Ўз ГЖ ахбороти. 32-жилд. Т., 2008. 6. 88-91.

<https://scientific-jl.com/>

bo'lib, bu holat barcha viloyatlarda kuzatiladi. Ma'lumotlari keyingi yillarda tabiiy ko'payish darajasi 1990-yillarga nisbatan pasayganini ko'ramiz. Surxondaryo viloyati aholisining tabiiy o'sish darajasi ham respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lib, bu borada respublikada 2 o'rinni egallaydi².

Viloyatda o'rtacha o'lim darajasi respublika ko'rsatkichidan past bo'lib (3,9 %), jadval ma'lumotlari Angor, Jarqo'rg'on, Boysun, Uzun, Sho'rchi tumanlari bilan birga viloyat markazi Termiz shahrida uning birmuncha yuqoriligini ko'rsatmoqda. Termiz shahri, Denov, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Uzun kabi tumanlarda esa har 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarga nisbatan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi viloyat o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqori (7,1 %) ³. Bunga asosan qo'shni Tojikiston Respublikasi Tursunzoda shahridagi allyuminiy zavodining viloyat ekologik vaziyatiga salbiy ta'siri va tibbiy sohada hal qilinishi zarur bo'lgan muammolarning ko'pligi ham ta'sir ko'rsatadi.

Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari tabiiy ko'payish ko'rsatkichini keltirib chiqarib, u ijtimoiy-iqtisodiy, biologik, demografik va boshqa omillarga bog'liq. Surxondaryo viloyati aholisining tabiiy ko'payish darajasiga ushbu omillar ichida milliy omil katta ta'sir ko'rsatadi. Respublikaning barcha viloyatlarida bo'lgani kabi Surxondaryo viloyatida ham tabiiy ko'payish sur'atlari pasaya borayotganini ko'rish mumkin. 1990-2000 yillarda tabiiy ko'payish darajasi eng yuqori bo'lgan Bandixon (52,8 %) tumani va eng past ko'rsatkichni ko'rsatayotgan⁴. Termiz shahri (20,1%) orasidagi farq 32,7% ni tashkil etgan holda, 2023 yil ushbu hududlar o'rtasidagi farq 7,5% ga teng bo'ldi. 7 ta tuman va Termiz shahri ko'rsatkichlari viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan (21,5%) past bo'lib⁵, bunga mazkur hududlarda viloyatning asosiy sanoat markazlari borligi bilan birga milliy tarkibida rusiyzabon millatlarning salmog'i ham nisbatan yuqori ekanligi sabab bo'ladi. Shuningdek, bu yerda ayollarning iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik

² Сафарова Н.И. Сурхондарё вилояти иқтисодий географик ўрнининг ўзига хос хусусиятлари //Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2006. Б 228-229.

³ Abdunazarov N.M., Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi(1-qism. Tabiiy geografiya). Termiz. 2023, 107 – b.

⁴ Рўзиев О. Аграсаноат мажмуаси ривожланишининг ҳудудий хусусиятлари (Сурхондарё вилояти мисолида). Иқтисод. фан. ном. илм. дар. олиш учун дисс. автореф. – Т., 2002 – 21 б.

⁵ Қурбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистон табиий ресурслари ва шаҳарлар ривожланиши // Ўз ГЖ ахбороти. 32-жилд. Т., 2008. б. 88-91.

<https://scientific-ijl.com/>

darajasi ham nisbatan yuqori (50% atrofida). Ma'lumki, ayollar iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan hududlarda tug'ilish, buning natijasida tabiiy ko'payish darajasi past bo'ladi.

Viloyat aholisining migratsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qadimgi davrlarda viloyat aholisining daryo vodiylarida yashab dehqonchilik bilan mashg'ul qismi o'troq, chorvachilik bilan shug'ullanadigan qismi esa ko'chmanchi tarzda hayot kechirar edi. O'tgan asr boshlaridan viloyat hududida yuz bergan tarixiy voqealar aholi migratsiyasiga ham o'zgartirishlar kiritdi. Masalan, Oktabr to'ntarishi viloyat aholisining tashqi migratsiyasiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, 60 -70 yillarda yangi yerlarning o'zlashtirilishi, mintaqa IGO'ning qisman qulaylashuvi, turli ma'dan konlarining topilishi aholining ichki migratsiyasini belgilab berdi.

Mustaqillik yillarida viloyat aholisining migratsiyasida tashqi migratsiyaning salmog'i oshdi. Viloyatga turli davrlarda ko'chib kelgan boshqa millat vakillarining asosiy qismi o'z ona vatanlariga qaytib ketishi, har xil iqtisodiy sabablar natijasida ishsiz qolgan mehnat yoshidagi aholi boshqa davlatlarga ishlash uchun vaqtinchalik viloyat hududidan chiqib ketishi holatlari bu jarayonda asosiy rol o'ynadi. Mintaqada respublikaning barcha viloyatlarida bo'lgani kabi migratsiya qoldig'i manfiy ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich Bandixon, Uzun, Boysun kabi tumanlarda yuqoriligi bilan ajralib turadi.

2023-yil ma'lumotlariga ko'ra viloyatdan 17241 kishi respublika tashqarisiga qonuniy tartibda ishlash uchun ketgan bo'lib, ulardan 30,1 % Angor, 10 % Uzun, 7,8 % Sariosiyo, 7,2 % Termiz tumaniga o'xshash iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish darajasi past bo'lgan tumanlarga to'g'ri keladi. Tashqi migratsiyada ishtirok etgan aholining 79 % Rossiya, 15,3 % Qozog'iston, 5,7 % boshqa xorijiy davlatlarga turli sabablar bilan chiqib ketganlar. Migratsiya jarayoni aholining tarkibiy jihatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Viloyat aholisining milliy tarkibida o'zbeklarning salmog'i yuqori. Surxondaryoda azaldan o'zbeklar bilan birga tojiklar, turkmanlar, afg'onlar, qozoqlar istiqomat qilgan bulsa, rusiyzabon millatlar asosan Rossiya bosqinidan keyin ko'plab ko'chib kela boshladilar. Bu holat aholining milliy tarkibida slavyan

xalqlarining salmog'i oshishiga sabab bo'ldi. Hozirda chet millat vakillarining o'z asl vatanlariga qaytib ketishlari sababli uning umumiy tarkibidagi salmog'i ancha pasaygan. Viloyat aholisining milliy tarkibi quyidagicha: o'zbeklar-83,7 %, tojiklar -12,5 %, ruslar -1,3 %, turkmanlar -1,3 % va boshqa millat vakillari -1,2 %⁶.

Ushbu millat vakillarining hududiy joylashuviga IGO'ning siyosiy qo'shnichilik holati katta ta'sir ko'rsatgan. Natijada tojiklar asosan viloyatning Tojikiston bilan chegaradosh Sariosiyo, Denov tumanlarida hamda qadim davrlardan buyon muqim o'rnashgan Boysun tumanlarida istiqomat qiladilar. Ruslar salmog'i asosan sanoat rivojlangan tumanlar markazlarida hamda viloyat markazi Termiz shahrida nisbatan yuqori. Sherobod, Muzrabot, Termiz tumanlarining Amudaryo bo'ylaridagi qishloqlarda azaldan aholi milliy tarkibida turkmanlar salmog'i katta. Ko'rinib turibdiki, IGO' o'ziga xos tarzda mintaqalarda aholining milliy tarkibi, millatlarning hududiy joylashuvi kabi jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Surxondaryo viloyati aholisi yosh tarkibida tug'ilish darajasining yuqoriligi bolalar va o'rta yoshlilar salmog'i katta bo'lishiga sabab bo'lgan. Umumiy aholi orasida 16 yoshgacha bo'lganlar salmog'iga ko'ra viloyat respublikamizda birinchi o'rinda turadi (37,2 %). O'rta yoshlilar 57,0 % ni, qariyalar 5,8 % ni tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, viloyat aholisining asosiy qismi mehnat resurslari hisoblanadi (53,9 %)⁷. Viloyatlarning geodemografik holati – ya'ni aholining soni, tarkibi, joylashuvi, migratsiya yo'nalishlari, tabiiy o'sish sur'atlari va boshqa demografik ko'rsatkichlari – mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining zichligi yuqori bo'lgan hududlarda iqtisodiy imkoniyatlar kengroq bo'lsa-da, ijtimoiy infratuzilma, ekologik holat va kommunal xizmatlar tizimiga tushadigan bosim ham ortadi. Aksincha, aholisi siyrak bo'lgan tuman va

⁶ Сатторов А. У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. Геогр. фан. ном. илм. дар. олиш учун дис. автореф. – Т., 2008 – 26 б.

⁷ Солиев А., Абдуназаров Ҳ. Енгил ва озиқ-овқат саноатининг минтақавий муаммолари (Сурхондарё вилояти мисолида). – Т.: Фан, 2007. – 130 б.

chekka hududlarda esa iqtisodiy faollik pastligi, xizmat ko'rsatish sifati va qulayliklar yetishmovchiligi kuzatiladi. Demografik tarkib – xususan, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushi, tug'ilish va qarish ko'rsatkichlari – iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi resurslarini belgilaydi. Agar viloyatda yoshlar soni ortib borayotgan bo'lsa, bu yangi ish o'rinlari yaratish, ta'lim va kasb-hunar tizimini rivojlantirish bo'yicha dolzarb choralarni talab etadi. Aksincha, aholining qarib borishi pensiya tizimi, tibbiyot xizmati va ijtimoiy ta'minotga bosimni kuchaytiradi.

Shuningdek, hududdagi demografik harakatchanlik – ya'ni migratsiya jarayonlari – mintaqalar o'rtasida mehnat kuchi va bilimlar oqimini shakllantiradi. Iqtisodiyoti rivojlangan viloyatlar "demografik magnit" vazifasini bajarsa, iqtisodiy sustlashgan hududlar aholining ketishini boshdan kechiradi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy ziddiyatlar va hududiy nomutanosibliklar paydo bo'lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdunazarov H.M., Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi(1-qism. Tabiiy geografiya). Termiz. 2023.
2. Сафарова Н.И. Сурхондарё вилояти иқтисодий географик ўрнининг ўзига хос хусусиятлари //Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2006.
3. Рўзиев О. Аграсаноат мажмуаси ривожланишининг ҳудудий хусусиятлари (Сурхондарё вилояти мисолида). Иқтисод. фан. ном. илм. дар. олиш учун дисс. автореф. – Т., 2002.
4. Қурбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистон табиий ресурслари ва шаҳарлар ривожланиши // Ўз ГЖ ахбороти. 32-жилд. Т., 2008.
5. Сатторов А. У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. Геогр. фан. ном. илм. дар. олиш учун дис. автореф. – Т., 2008.
6. Солиев А., Абдуназаров Х. Енгил ва озиқ-овқат саноатининг минтақавий муаммолари (Сурхондарё вилояти мисолида). – Т.: Фан, 2007.